



GAVHAR IBODULLAYEVA SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN ANTROPOETONIMLARNING MATN BUTUNLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

To'liboyeva Sabohat Davronbek qizi

Osiyo xalqaro universiteti stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Gavhar Ibodullayeva she'rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ijodkor she'rlaridagi onomastik ko'lam, shuningdek antropoetonimlar va topoetonimlardan foydalanish mahorati, uning she'riyati va tilining o'zbek adabiy tili rivojida o'rnini belgilash haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, onomastik ko'lam, antropoetonimlar, topoetonimlar, so'z boyligi, til boyligi

Keyingi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazida turgan masalalardan biri onomastik birliklarning badiiy matndagi o'rnini masalasidir. Onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish o'zbek tilshunosligida yangi hamda dolzarb masalalardan biridir. Alohida ijodkor asarlarining onomastik ko'lamini o'rganish shoirning til boylıklaridan maqsadli va unumli foydalanish qobiliyati, muallifning badiiy uslubi va o'zi mansub she'riyatda tutgan o'rnini baholashga yordam beradi. Badiiy asar tilida qo'llangan nomlar tadqiqi yuzasidan qilingan ishlarda pretsedent birliklar tilga olinadi. "Muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar deyiladi". Bir so'z bilan aytganda bunday birliklarni xalq tili ruhiyatiga singgan lisoniy vositalar deyish mumkin. Pretsedent nomlar mashhur nomlar bo'lganligi sababi ular badiiy matnda allyuziv nom, onomastik metafora kabi lingvopoetik vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega. Shoir asarlari tilida milliy mentalitetga bog'liq bo'lgan holda mashhur nomlardan foydalanish badiiy obraz chizishda qo'l keladi. Poeziyada nomlar ko'p hollarda, tabiiyki, badiiy vosita sifatida maydonga chiqadi, matnni anglash jarayonini tezlashtiradi. Aytish mumkinki, muayyan ijodkor asarlarida qo'llangan allyuziv nomlar, eng avvalo, o'sha ijodkor dunyoqarashining boyligi, nom qo'llash salohiyati, dunyoviy va milliy madaniyatdan nechog'lik xabardor ekanligi haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga, ayrim allyuziv nomlar o'zida ilm-fan, adabiyot, san'at, tarix, din, madaniyat haqidagi bilimlarni saqlovchi akkumulyativ nomlar sanaladi. Bunday nomlar qatnashgan matnlarda katta hajmli axborotni ixcham shaklda ifodalash imkoniyati mavjud bo'ladi. Onomastik birliklar allyuziv nom sifatida qo'llanganda yozuvchi va shoirning badiiy maqsadi bir muncha aniq ifodalanadi. "Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar, va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardan turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish" usuli allyuziya deyiladi.



Ma'lumki, she'riy nutqda antroponimlardan badiiy maqsadda foydalanish holati ko'p kuzatiladi. Shu bois she'riy matnlarning onomastik ko'lami o'ziga xos bo'lib, bu o'ziga xoslik- tarixiy, mifologik antroponimlarga ko'p murojaat qilishda yaqqol ko'rinadi. Bunda nomlar orqali intertekstuallik yuzaga keladi. Umuman olganda badiiy matnning onomastik ko'lami asarning struktural-semantik yaxlitligiga xizmat qilishi barobarida biror janr ta'iatiga xos effektni yaratishda (masalan, tarixiy koloritni yuzaga keltirish) matnning serqatlamligini ta'minlashda, xalqning milliy mentaliteti, o'ziga xos madaniyatini ko'rsatishda, ijodkorning badiiy tafakkur darajasini namoyon qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham biz o'z ishimizda Xorazm elining mehnatkash, jonkuyar insoni, asl ijodkor, Yangibozor elining haqiqiy shoirasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Gavhar Ibodullayeva she'rlaridagi onomastik ko'lamni, jumladan, antroponimlarni atroflicha tahlil qilishga harakat qildik.

Xohlasi daryoday gupurib toshgan,
Xohlasi to'g'onday to'xtaydi bu el
Sha'nini yurakda tug'day asragan
Masharif akaga o'xshaydi bu el.

Ushbu keltirilgan misolda Masharif aka antroponimi qo'llangan. Masahrif Quvoqov istiqlol yillarida Xorazmda ilk bor "O'zbekiston Qahramoni" oliy unvoniga sazovor bo'lgan inson. Bu antroponim onomastik metafora yaratilishiga asos bo'lgan. Ya'ni elni yurtning sha'nini ko'sida tug'day asragan Masharif akaga o'xshatilmoqda.

Shakarjon opamning ro'moli yanglig',
Nafis titranadi bog'lar epkini,
Kimni sarhush etmas sohir tuyg'ular,
Bu bog'lar bag'riga chorlamas kimni?

Ushbu keltirilgan parchada Shakarjon opa antroponimi qo'llangan. Shakarjon Xo'janiyozova Bog'ot tumanida o'n yildan ziyod hokimlik qilgan ayol, davlat va jamoat arbobi. Bu antroponimlar real nom hisoblanib, badiiy nutqqa o'zgacah bir ruh, emotsionallik bag'ishlagan. Shakarjon opaning ro'moli yanglig' jumlasida esa onomastik metaforani yuzaga keltirgan. Bog'lar shamoli Shakarjon opaning ro'moli tebranishiga qiyoslangan. Badiiy matnda qo'llangan antroponimlar ijodkorning individual mahoratini ham ko'rsatuvchi vositadir. Ba'zi adiblar qo'llagan nomlar adib yashagan makonga ishora qilib turishi bilan xarakterlanadi. Shoir she'riyatiga diqqat bilan nazar tashlasak Xorazm elimizning, Yangibozor o'lkamizning jonkuyar farzandlarini, fidoyi insonlarini qalamga oladi va bu shoiraning o'z yurti Xorazm elining jonkuyar, vatanparvar, xalqparvar shoirasi, fozila farzandi ekanligidan dalolat beradi.

G'afurjonim torin chalsa-bulbul tinsa,
G'ulomjonim avjin olsa- toshlar sinisa,
Boshlarimga toj etmaymi seni yurtim,
San'atingdan qalbg'a so'ngsiz g'urur inisa



Ushbu parcha “Iftixor” she’ridan olingan bo’lib G’afur va G’ulom antroponimlari qo’llangan. G’afur va G’ulom Eshjanovlar Xorazm elining otashnafas san’atkorlari, sohir ovoz sohiblaridir. She’rda ularning san’atiga, qo’shiqchiligiga ishora mavjud. Bu antroponimlar matnning ko’pqatlamligini ta’minlagan, intertekstuallikni vujudga keltirgan. She’rdagi tor va avj so’zlari bu insonlarning qo’shiqchi ekanligiga ishora qiliadi.

Tovuslar dog’ Dilnozalar xiromidan
Gulnoralar Shahnozalar maqomidan,
Qayrag’ochlar qoyil qaddi bo’ylariga
Eng chiroyli so’zlar yetmas dil jonimdan.

Ushbu misralarda ham Xorazm san’ati, madaniyati, raqslari qalamga olingan. She’rda keltirilgan antroponimlar real allyuziv nomlar hisoblanadi. Dilnoza, Gulnora, Shahnozalar yetuk raqqosalar bo’lib Xorazm raqs san’atini dunyoga yoyishmoqda. She’rdagi tovu va maqom so’zlari ham bu antroponimlarga badiiy yuk qo’shgan va shoiraning badiiy maqsadiga erishuvida ko’mak bergan.

Qadamidan o’t chaqnagan yulduzmisiz
Oksana qiz, sho’x Amuning o’zimisiz
Ta’rifingiz bitta so’zda ijro bo’lgay
Ta’rifi yo’q Gavharimning o’zimisiz.

Bu parchada ham antroponim allyutik xarakterga ega. Nega deganda Oksana deyilganda hamma sportning gimnastika turida g’alaba qozongan chempionni ko’z oldiga keltiradi. Oksana Aleksandrovna Chusovitina sportchi. Uni va harakatlarini iste’dodli shoira Amudaryoning mavjlariga o’xshatadi. Bu antroponim she’rga o’zgacha poetik ruh bag’ishlagan.

Jonimga jon yanglig’ Qoraqalpog’im,
Ajiniyoz, Berdaq bobomning tili
Ona O’zbekiston bag’ridagi gul
Ma’rifat ijodda benzair eli

Ushbu berilgan she’riy parchada qoraqalpoqlarning mashhur shoirlari Ajiniyoz va Berdaq nomi keltirilgan bo’lib, ular tarixiy antroponim vazifasini bajargan. Bu nomlar ham allyutik belgiga ega. Allyuziv nomlar qatnashgan matnlarda katta hajmli axborotni ixcham shaklda ifodalash imkoniyati mavjud bo’ladi. Bu she’r ham bundan mustasno emas.

Qachon ma’rifatga so’z boshlar bo’lsam,
Kubro bobomlarning ruhlari alqar
Xorazm –she’riyat, nazm gulshanim
Ogahiy, Munisim ko’zimda gavhar.

Keltirilgan she’riy parchada Kubro, Ogahiy, Munis xorazmiy mutafakkir, shoirlarning ismlari keltirilgan bo’lib allyutik xarakterga ega. She’rda esa bu antroponimlar intertekstuallikni vujudga keltirgan.

Sizga ta’rif izlab yuragim to’lmas,



Anbar otinmisiz, Dilshod Barnoyim
Xullas aytganingiz bitmasa bo'lmas
Nabiram nazdida chin avliyoyim.

Ushbu she'rda Anbar otin, Dilshodi Barno tarixiy antroponimlari qo'llangan. Ushbu parcha "Ustoz" she'ridan olingan. Bu antroponimlar qo'llash orqali ularning otinoyilik, ustozlik qilgan faoliyatiga ishora qilgan va matnda intertekstuallikni ta'minlagan. Natijada shoira o'zining badiiy maqsadiga, ma'naviy-tarbiyaviy xulosa chiqarilishiga erishgan.

Xullas, badiiy matnda antroponimlardan allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish, matnning intertekstualligini ta'minlash, salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash, kuchli his-hayajonni, turli ma'nodagi murojaatni ifodalash hamda badiiy san'atlarni yuzaga keltirishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilrabo Andaniyazova. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. Toshkent, 2016.
2. Matnazarov J. Matnazar Abdulhakim she'riyati lingvopoetikasi: Avtoreferat. Filol. fan. nomz. ... dis. -Ur., 2022
3. Normamatov S. Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining ma'naviy-uslubiy xususiyatlari: filol.fan. nomz...diss. avtoref.-Toshkent, 2011
4. Yuldashev D. Atoqli otlarning antroposentrik tadqiqi: filol.fan.dok....disser.-Toshkent, 2021.
5. Ibodullayeva G. Mendan ketayotgan kunlarim. -Urganch: Ogahiy, 2022.
6. Ibodullayeva G. Vatan siyrati. -Toshkent: Adabiyot, 2022.